



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti




№8(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 154 sahifa,  
3-avgust, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                  |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi .....                                                  | 10  |
| <b>Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna</b>                                                                                                          |     |
| Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish .....                         | 13  |
| <b>Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li</b>                                                                                                          |     |
| Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....                                                | 17  |
| <b>Mutallibjonov Boburmirzo</b>                                                                                                                  |     |
| Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi .....                                                                                 | 26  |
| <b>Nosirova Feruza Baxadir qizi</b>                                                                                                              |     |
| Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli..... | 30  |
| <b>Gafurova Mahfuza Abbosovna</b>                                                                                                                |     |
| Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi .....                                       | 35  |
| <b>Ravshanova Uldona Narziboyevna</b>                                                                                                            |     |
| Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni .....                           | 39  |
| <b>Vorisova Barnoxon Olimjon qizi</b>                                                                                                            |     |
| Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish ....                                   | 43  |
| <b>Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li</b>                                                                                                     |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antirfragil yondashuvning o'rni.....                               | 51  |
| <b>G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi</b>                                                                                                      |     |
| Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari .....                                                                            | 57  |
| <b>Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna</b>                                                                                                          |     |
| Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish .....        | 61  |
| <b>G'ofurov To'liqinjon</b>                                                                                                                      |     |
| Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching .....                          | 67  |
| <b>Ismailova Aziza Dilshodovna</b>                                                                                                               |     |
| Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....                                                                 | 72  |
| <b>Канаатов Есимкан</b>                                                                                                                          |     |
| Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....                                             | 76  |
| <b>Abdullayev Amirulla Xazratovich</b>                                                                                                           |     |
| Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi .....                                                                       | 81  |
| <b>Pardayeva Kamola Sultonovna</b>                                                                                                               |     |
| Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish .....                                    | 86  |
| <b>Imomaliyev Quvvat Choriyevich</b>                                                                                                             |     |
| Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish .....                       | 91  |
| <b>Nurmetov Tursunbek Kenjayevich</b>                                                                                                            |     |
| Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish .....                                                       | 96  |
| <b>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi</b>                                                                          |     |
| Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli .....                  | 99  |
| <b>Mardonov Maqsudbek Maxmudovich</b>                                                                                                            |     |
| Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari .....             | 103 |
| <b>Umarova Umidaxon Ibaydullayevna</b>                                                                                                           |     |



|                                                                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari .....                                                                              | 108 |
| <i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>                                                                                                                             |     |
| Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi .....                     | 114 |
| <i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>                                                                                                                                 |     |
| Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari .....                                    | 119 |
| <i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>                                                                                                   |     |
| Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari .....                               | 124 |
| <i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>                                                                                                                             |     |
| Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi .....                                    | 129 |
| <i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>                                                                                                                              |     |
| Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .....                                      | 133 |
| <i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>                                                                                                                            |     |
| Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar .....                                                              | 137 |
| <i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>                                                                                                                            |     |
| Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar ..... | 142 |
| <i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>                                                                                                                             |     |
| Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations .....                                                                                     | 147 |
| <i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>                                                                                                                            |     |

# XALQ OG'ZAKI IJODI ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KREATIV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH TEKNOLOGIYALARI

Abduraximova Muxabbat Allayevna

Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi namunalaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar, afsonalar, dostonlar va tez aytishlar kabi folklor namunalarining bo'lajak pedagoglarning ijodiy fikrlashi, kasbiy kompetensiyasi, innovatsion yondashuvi hamda metodik tayyorgarligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, kreativ ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, loyiha faoliyati, muammoli ta'lim va integrativ yondashuv asosida xalq og'zaki ijodini o'quv jarayoniga tatbiq etishning metodik mexanizmlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodi vositalaridan tizimli foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodkorlik salohiyati, pedagogik mahorati hamda mustaqil kasbiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, kreativ faoliyat, kreativ kompetensiya, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim, interfaol metodlar, metodik tayyorgarlik, kasbiy kompetensiya, ijodiy fikrlash, integrativ yondashuv, ta'lim sifati, folklor pedagogikasi, loyiha texnologiyasi, muammoli ta'lim.

**Abstract:** This article analyzes, from a scientific and pedagogical perspective, the technologies for enhancing the creative activity of prospective primary school teachers through the effective use of folk oral literature in the educational process. It highlights the educational potential of folklore genres, including folk tales, proverbs, riddles, legends, myths, epics, and tongue twisters, in developing creative thinking, professional competence, innovative approaches, and methodological preparedness among future teachers. Furthermore, the study substantiates methodological mechanisms for integrating folk oral literature into the educational process through creative educational technologies, interactive teaching methods, project-based activities, problem-based learning, and an integrative approach. The research findings demonstrate that the systematic use of folk oral literature contributes significantly to the development of creative potential, pedagogical excellence, and professional independence of prospective primary school teachers.

**Key words:** folk oral literature, creative activity, creative competence, prospective primary school teacher, pedagogical technologies, innovative education, interactive teaching methods, methodological training, professional competence, creative thinking, integrative approach, quality of education, folklore pedagogy, project-based learning, problem-based learning.

**Аннотация:** В данной статье с научно-педагогической точки зрения рассматриваются технологии совершенствования креативной деятельности будущих учителей начальных классов посредством эффективного использования произведений устного народного творчества в образовательном процессе. Раскрываются педагогические возможности таких жанров фольклора, как народные сказки, пословицы, загадки, предания, легенды, эпические произведения и скороговорки, в развитии творческого мышления, профессиональной компетентности, инновационного подхода и методической подготовки будущих педагогов. Кроме того, обоснованы методические механизмы внедрения устного народного творчества в образовательный процесс на основе креативных образовательных технологий, интерактивных методов, проектной деятельности, проблемного обучения и интегративного подхода. Результаты исследования показывают, что систематическое использование средств устного народного творчества способствует развитию творческого потенциала, педагогического мастерства и профессиональной самостоятельности будущих учителей начальных классов.

**Ключевые слова:** устное народное творчество, креативная деятельность, креативная компетентность, будущий учитель начальных классов, педагогические технологии, инновационное образование, интерактивные методы, методическая подготовка, профессиональная компетентность, творческое мышление, интегративный подход, качество образования, фольклорная педагогика, проектная технология, проблемное обучение.



## KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri kreativ fikrlaydigan, innovatsion yondashuvga ega, kasbiy kompetensiyalari rivojlangan pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat. Shu bois bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish oliy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim o'qituvchidan nafaqat fan asoslarini mukammal bilishni, balki ta'lim jarayonini ijodiy tashkil etish, o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtira oladigan innovatsion metodlardan samarali foydalanishni ham talab etadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda xalq og'zaki ijodi bebaho pedagogik manba va samarali didaktik vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida xalqning ma'naviy merosi, hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari, estetik didi va tarbiyaviy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirib kelgan. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar, afsonalar, dostonlar va tez aytishlar yosh avlodning tafakkurini rivojlantirish, nutq madaniyatini shakllantirish, ijodiy tasavvurini boyitish hamda milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida ushbu folklor namunalari maqsadli va tizimli foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, mantiqiy mushohada yuritishi, kommunikativ kompetensiyasi va bilishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida xalq og'zaki ijodidan foydalanish nafaqat ularning metodik bilim va ko'nikmalarini boyitadi, balki kreativ pedagogik faoliyatni tashkil etish kompetensiyasini ham shakllantiradi. Chunki xalq og'zaki ijodi namunalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha faoliyati hamda integrativ yondashuv asosida qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda bo'lajak pedagoglarning innovatsion fikrlashi va ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Shu bilan birga, pedagogika nazariyasi va amaliyotida xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy hamda didaktik imkoniyatlari keng o'rganilgan bo'lsa-da, uni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari bilan integratsiyalash, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida metodik modelini ishlab chiqish masalalari hali ham ilmiy izlanishlarni talab etadi. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish hamda xalq og'zaki ijodidan ta'lim jarayonida samarali foydalanish masalalari pedagogika fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv, kreativ pedagogika va milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu muammoning nazariy va amaliy asoslarini sezilarli darajada boyitdi.

Xorijiy olimlardan E. Torrance kreativlikni shaxsning muammolarga nisbatan o'ziga xos yondashuvi, yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyati sifatida izohlaydi. Uning fikricha, ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun erkin ijodiy muhit yaratish, o'quvchilar va pedagoglarni nostandart yechimlar topishga yo'naltirish zarur. J. Guilford esa kreativlikning divergent tafakkur bilan uzviy bog'liqligini asoslab, pedagogik faoliyatda mustaqil fikrlash va muammolarni turli usullar bilan hal etish ko'nikmalarini shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi.

Ken Robinson zamonaviy ta'lim tizimida ijodkorlikni rivojlantirish ta'lim sifatining asosiy mezonlaridan biri ekanligini qayd etib, bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda milliy madaniyat va an'analarni innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslaydi. V. A. Suxomlinskiy pedagogik merosida xalq pedagogikasi, ertaklar va maqollarning bolalar tafakkuri hamda axloqiy fazilatlarini rivojlantirishdagi o'rnini keng yoritilgan. Olimning fikricha, xalq og'zaki ijodi bolalarda ezgulik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va ijodkorlikni shakllantiruvchi eng tabiiy tarbiya vositasidir.

O'zbekiston olimlaridan N. Egamberdiyeva, R. Ishmuhammedov, O. Tolipov, M. Usmonboyeva, S. Nishonova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari chuqur o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida bo'lajak pedagoglarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning nazariy hamda metodik asoslari ishlab chiqilgan.

Xalq og'zaki ijodining pedagogik imkoniyatlari bo'yicha M. Jo'rayev, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, O. Safarov kabi folklorshunos olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning ilmiy ishlari xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar va dostonlarning yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, estetik didini shakllantirish hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Mazkur tadqiqotlarda xalq og'zaki ijodi nafaqat milliy meros, balki samarali pedagogik vosita sifatida ham baholanadi.

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda xalq og'zaki ijodini boshlang'ich ta'lim mazmuniga integratsiya qilish, o'quvchilarning nutqiy, kommunikativ va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi asosida aynan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari, ularning metodik modeli, pedagogik shart-sharoitlari va samaradorlik mezonlari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatish, tahlil va sintez, umumlashtirish hamda tavsifiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Qiyosiy-taqqoslash metodi orqali xalq og'zaki ijodining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari zamonaviy kreativ ta'lim texnologiyalari bilan o'zaro taqqoslandi hamda ularning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni baholandi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi yordamida xorijiy va mahalliy olimlarning kreativ pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv hamda xalq pedagogikasiga oid ilmiy qarashlari o'rganildi va tizimlashtirildi.

Pedagogik kuzatish metodi asosida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalangan holda tashkil etilgan mashg'ulotlarning talabalar kreativ faoliyatiga ta'siri tahlil qilindi. Tahlil va sintez metodlari orqali olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, xalq og'zaki ijodi asosida kreativ faoliyatni rivojlantirishning metodik modeli hamda uning asosiy komponentlari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari tavsifiy tahlil asosida izohlanib, xalq og'zaki ijodini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali yondashuv ekanligi asoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi hamda mazkur jarayonda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarning samaradorligi ilmiy-metodik jihatdan baholandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish bo'lajak pedagoglarning ijodiy fikrlashi, kasbiy kompetensiyasi va metodik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot davomida xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar, afsonalar, dostonlar va tez aytishlar kreativ ta'limning mazmuniy komponentlari sifatida qo'llanildi. Ular asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda muammoli ta'lim, loyiha metodi, "Aqliy hujum", "Klaster", "Sinkveyn", "FSMU", "Baliq skeleti (Fishbone)", "Rol o'ynash", "Keys-stadi" hamda refleksiv metodlardan foydalanildi. Natijada talabalar nafaqat folklor namunalarining mazmun-mohiyatini o'zlashtirdilar, balki ulardan boshlang'ich ta'lim darslarini loyihalash va tashkil etishda kreativ foydalanish ko'nikmalarini ham egalladilar.

O'quv jarayonini kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalarning dars ishlanmalarini yaratish, interfaol topshiriqlarni ishlab chiqish, o'quv vaziyatlarini model-lashtirish va muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topish ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. Ayniqsa, ertak va rivoyatlar asosida tuzilgan kreativ topshiriqlar talabalarning divergent fikrlashi, pedagogik tasavvuri va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tahlillar asosida xalq og'zaki ijodi vositalaridan foydalanishning quyidagi pedagogik afzalliklari aniqlandi:

- bo'lajak o'qituvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi;
- darslarni loyihalash va tashkil etish bo'yicha metodik kompetensiyalarni mustahkamlaydi;
- milliy qadriyatlar va umuminsoniy g'oyalarni ta'lim mazmuniga integratsiya qilish imkonini yaratadi;
- kommunikativ kompetensiya va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash tajribasini boyitadi;
- kasbiy refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalq og'zaki ijodi asosida kreativ faoliyatni rivojlantirish texnologiyasi uch bosqichli model asosida samarali amalga oshirilishi aniqlandi. Birinchi bosqichda motivatsion-kompetensiyaviy tayyorgarlik shakllantirilib, talabalarda xalq og'zaki ijodining pedagogik ahamiyati yuzasidan barqaror qiziqish hosil qilinadi. Ikkinchi bosqichda amaliy-faoliyat yo'nalishidagi mashg'ulotlar orqali folklor namunalarini dars jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha metodik ko'nikmalar rivojlantiriladi. Uchinchi bosqichda esa refleksiv-



baholash faoliyati tashkil etilib, talabalarning kreativ kompetensiyasi, metodik mahorati va kasbiy rivojlanish dinamikasi baholanadi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodi asosida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, folklor namunalarini interfaol metodlar va raqamli ta'lim vositalari bilan uyg'unlashtirish talabalarni mustaqil izlanishga, ijodiy yondashuvni namoyon etishga va innovatsion pedagogik yechimlar ishlab chiqishga undaydi.

Tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodi namunalaridan pedagogik ta'lim jarayonida maqsadli va tizimli foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar, afsonalar va dostonlar nafaqat tarbiyaviy ahamiyatga ega, balki talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarga nostandard yechim topish hamda pedagogik vazifalarni innovatsion yondashuv asosida hal etish imkonini ham yaratadi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar E. Torrance va J. Guilford tomonidan ilgari surilgan kreativlik nazariyalari bilan uyg'unlik kasb etadi. Mazkur olimlar kreativlikni yangi g'oyalarni yaratish, divergent fikrlashni rivojlantirish va muammolarga turli nuqtai nazardan yondashish qobiliyati sifatida tavsiflaydi. Xalq og'zaki ijodi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar ham talabalarda aynan shu kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Ayniqsa, ertak va rivoyatlar asosida ishlab chiqilgan muammoli topshiriqlar talabalarning pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish hamda kreativ metodik yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari xalq pedagogikasining zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim bilan integratsiyalashuvi pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishini ko'rsatdi. Xalq og'zaki ijodini interfaol metodlar, loyiha texnologiyasi, muammoli ta'lim va raqamli ta'lim resurslari bilan uyg'unlashtirish natijasida talabalar o'quv materialini chuqurroq o'zlashtirdi, metodik loyihalash, jamoaviy ishlash, kommunikativ muloqot va refleksiv tahlil ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu esa kreativ faoliyatning faqat ijodiy fikrlash bilan cheklanmasdan, kasbiy kompetensiyalarning kompleks rivojlanishini ham ta'minlashini ko'rsatadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, amaliyotda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish ko'pincha faqat tarbiyaviy vosita sifatida qaralmoqda. Aslida esa folklor namunalari bo'lajak o'qituvchilarning dars loyihalarini yaratish, innovatsion metodlarni tanlash, integratsiyalashgan mashg'ulotlarni tashkil etish va kreativ pedagogik vaziyatlarni modellashtirishda samarali metodik resurs bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, xalq og'zaki ijodining didaktik imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish oliy pedagogik ta'lim dasturlarini mazmunan boyitishga xizmat qiladi.

Biroq tadqiqot davomida ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, bo'lajak o'qituvchilarning xalq og'zaki ijodi namunalaridan zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'un holda foydalanish bo'yicha metodik tayyorgarligi yetarli darajada shakllanmaganligi, o'quv-uslubiy resurslarning cheklanganligi hamda kreativ topshiriqlarni ishlab chiqish bo'yicha amaliy tajribaning kamligi mazkur jarayon samaradorligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida xalq pedagogikasiga asoslangan innovatsion metodik ta'minotni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda muhim pedagogik resurs ekanligini tasdiqladi. Folklor namunalari o'zining boy tarbiyaviy, didaktik va ma'naviy-ma'rifiy imkoniyatlari bilan bo'lajak pedagoglarning ijodiy fikrlashi, kasbiy kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi hamda innovatsion yondashuvini shakllantirishga samarali xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar, afsonalar, dostonlar va tez aytishlarni interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha texnologiyasi hamda integrativ yondashuv asosida qo'llash talabalarning kreativ tafakkuri, kommunikativ kompetensiyasi, pedagogik refleksiyasi va mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Mazkur texnologiyalar ta'lim jarayonini mazmunan boyitish bilan bir qatorda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga ijodiy yondashuvini ham mustahkamlaydi.

Tadqiqot davomida xalq og'zaki ijodi asosida kreativ faoliyatni rivojlantirishning metodik modeli ishlab chiqildi va uning motivatsion, mazmuniy-faoliyat hamda refleksiv-baholash komponentlarining o'zaro uzviy bog'liqligi asoslandi. Ushbu model pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetensiyasini izchil rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta'lim muassasalarida xalq og'zaki ijodining didaktik imkoniyatlaridan foydalanishni yanada kengaytirish, o'quv fanlari mazmunini folklor materiallari bilan boyitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish hamda kreativ topshiriqlar bankini yaratish zarurligini ko'rsatdi. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF–60-son<sup>1</sup> Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2026-yil 16-fevraldagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida PF–21-son<sup>2</sup> Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ–231-son<sup>3</sup> Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta'lim to'g'risida” O'RQ–637-son<sup>4</sup> Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining “Maktabgacha va maktab ta'limi to'g'risida”gi normativ-huquqiy hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2023.
6. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
7. Ishmuhamedov R., Yo'ldoshev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2017.
8. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2015.
9. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
10. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: Musiqqa, 2010.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-8050769>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-6981085>

4 <https://lex.uz/docs/-5013007>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №8(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.